Axmedova Sanobar Ikrom qizi, Davlatov Ahmadjon Anvarbek o'g'li	
DAVLAT XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARIDA VUJUDGA KELADIGAN RISKLARGA QARSHI UZOQ MUDDATLI IQTISODIY STRATEGIYALAR	760
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
MODERN MODELS OF SALES LOGISTICS IN THE SERVICE SECTOR: MARKETING ASPECT AND AREAS FOR IMPROVEMENT	764
Mamatkulova Shoir Djalolovna	
РОЛЬ ПЛАНИРОВАНИЯ И ПРОГНОЗИРОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОРГАНИЗАЦИИ ФИНАНСОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА.....	769
Ахмедова Азиза Тохировна, Зайналов Ж.Р.	
ВЫСШАЯ МАТЕМАТИКА КАК ОСНОВА ФИНАНСОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ.....	774
Айматова Фарид Хуразовна	
XORIJIY MOLIVAVIY RESURLAR VA ULARNING IQTISODIY O'SISH SIFATINI TA'MINLASHDAGI O'RNII	778
Xomidova Kamola G'olib qizi	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA TO'LOV QOBILİYATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ICHKI BOSHQARUV INSTRUMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH	783
Xattabov Murodulla Batirovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR BARQAROR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	788
Hakimova Nozimaxon Sobirjon qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRIPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLUKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjnovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI

Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi

University of business and science Toshkent filiali

Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti

Email: saidovamadina612@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati, ustuvor maqsadlari hamda raqamlashtirish jarayonining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning zamonaviy xususiyatlari, iqtisodiyotni robotlashtirish jarayonlari, raqamli valyutalar bilan bog'liq muammolar hamda milliy raqamli xavfsizlik tizimini shakllantirish zarurati kabi dolzarb masalalar yoritilgan.

Shuningdek, maqolada 2020–2024-yillar davomida “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi, yalpi qo'shilgan qiymat dinamikasi, raqamli infratuzilma qamrovi, xalqaro reyting va indekslardagi o'rinlar hamda “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadli ko'rsatkichlari statistik tahlil asosida o'rganilgan.

Tadqiqot O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi erishilgan natijalarini baholash va kelgusidagi ustuvor yo'nalishlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, robotlashtirish, raqamli xavfsizlik, elektron hukumat, AKT, investitsiyalar, xalqaro indekslar, O'zbekiston.

Abstract. This article provides an analytical assessment of the current state, priorities, and key macroeconomic indicators of digital transformation in the Republic of Uzbekistan. The study examines contemporary features of the digital economy, processes of economic robotization, challenges related to digital currencies, and the necessity of establishing a national digital security system.

The paper includes a statistical analysis of investments in the information and communication technologies (ICT) sector for 2020–2024, the dynamics of gross value added, digital infrastructure coverage, international rankings and index positions, as well as the target indicators of the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy.

The research aims to evaluate Uzbekistan's achievements in digital transformation and identify priority directions for future development.

Key words: digital economy, digitalization, robotization, digital security, e-government, ICT, investments, international indices, Uzbekistan.

Аннотация. В статье представлен аналитический обзор состояния цифровой экономики Республики Узбекистан, её приоритетных целей и ключевых макроэкономических показателей цифровизации. В исследовании рассмотрены современные особенности цифровой экономики, процессы роботизации экономики, проблемы цифровых валют, а также необходимость формирования национальной системы цифровой безопасности.

Кроме того, проведён статистический анализ инвестиций в сферу информационно-коммуникационных технологий за 2020–2024 годы, динамики валовой добавленной стоимости, уровня охвата цифровой инфраструктурой, позиций страны в международных рейтингах и индексах, а также целевых показателей стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030».

Исследование направлено на оценку достигнутых результатов в сфере цифровой трансформации и определение приоритетных направлений дальнейшего развития.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровизация, роботизация, цифровая безопасность, электронное правительство, ИКТ, инвестиции, международные индексы, Узбекистан.



KIRISH

Raqamli iqtisodiyot samaradorligini har bir zamonaviy tadqiqotchi va tajribali tadbirkor bir xil darajada baholay olmaydi. Aholi uchun muhim jihatlardan biri shundaki, raqamli iqtisodiyotning asosiy namoyon bo'lish shakllaridan biri — robotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalariga keng joriy etishdir. So'nggi yillarda xalqaro tashkilotlar ham iqtisodiyotni robotlashtirish jarayonining ehtimoliy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga e'tibor qaratmoqda, chunki ayrim sohalarida avtomatlashtirish mehnat bozori tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bashoratlarga ko'ra, kelgusi o'n yilliklarda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda an'anaviy ishlab chiqarish sohalarida bandlik qisqarishi ehtimoli mavjud. Bu, asosan, moddiy ishlab chiqarish ustunlik qiladigan iqtisodiyotlarga tegishli bo'lishi mumkin.

O'tgan asr oxirlaridayoq naqd pulsiz hisob-kitob tizimlari keng joriy etilgan edi. Markaziy banklar tomonidan chiqarilgan bunday mablag'lar depozit pullar sifatida amal qilgan. Hozirgi bosqichda esa shaxsiy raqamli valyutalar shakllanmoqda. Ayrim mutaxassislar fikricha, bu jarayon aholining moliyaviy xulq-atvoriga va iqtisodiy munosabatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarga tezroq moslashadigan yosh avlodning raqamli iqtisodiyotdagi o'rni nisbatan yuqoriroq baholanadi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bandlik tarkibi va mehnat bozori modeliga ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omillarini takomillashtirish masalalari qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, N. Negroponte, D. Tapscott, R. Coase, N. Lane, T.L. Mesenbourg, M.A. Kalujsky, A.A. Lokalov, A.A. Urasova kabi olimlarning ilmiy ishlarida mazkur yo'nalishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot miqyosining o'sishi, iqtisodiyotni raqamlashtirish parametrlarini miqdoriy baholash usullari hamda rivojlanish ustuvorliklarini shakllantirish mexanizmlariga doir tadqiqotlar R.H. Ayupov, G.R. Boltaboyeva, B.A. Begalov, I.Ye. Jukovskaya, K.X. Abdurakhmanov, Sh.K. Kudbiyev, A.Yu. Magrupov, B. Xajiyev, P.Z. Xoshimov, Z.F. Faxriddinova tomonidan amalga oshirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistik tahlil hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kelajakda quyidagi yangi kasblar shakllanishi ehtimoli mavjud:

- shaxsiy brend menejeri;
- virtual advokat;
- davlat organlari bilan muloqot platformasi moderatori;
- infostaylist;
- raqamli lingvist;
- muddatli broker;
- interfeys dizayneri (uslubchisi).

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini shakllantirish zaruratini ham yuzaga keltiradi. Institutsional yondashuv nuqtayi nazaridan "Milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimi" murakkab siyosiy-huquqiy, tashkiliy, texnik hamda ijtimoiy-madaniy elementlardan iborat bo'lgan tizim sifatida talqin etiladi. U raqamli iqtisodiyot subyektlarining milliy manfaatlarini hamda amaldagi milliy qonunchilik talablarini himoya qilishga xizmat qiluvchi obyekt va subyektlar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu esa davlat siyosati doirasida milliy raqamli xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy va institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini anglatadi.

Raqamli iqtisodiyot ayrim o'ziga xos funksional xususiyatlari sababli klassik iqtisodiyotga xos ayrim cheklavlarni yumshatish imkonini beradi:

1. Moddiy mahsulotlar cheklangan resurs bo'lsa, raqamli mahsulotlar ko'paytirilishi va keng auditoriyaga tarqatilishi mumkin.

2. Moddiy mahsulotlar foydalanish jarayonida eskiradi, raqamli mahsulotlar esa o'z xususiyatlarini saqlab qoladi hamda almashinuv yoki integratsiya jarayonida takomillashishi mumkin.

3. Axborot-kommunikatsiya platformalari an'anaviy savdo maydonlaridagi hududiy va miqdoriy cheklavlarni bartaraf etib, bir vaqtning o'zida ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi.



So'nggi to'rt yil davomida O'zbekistonda axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida sezilarli qadamlar tashlandi. Bu esa iqtisodiyotning turli sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va uning raqamli ulushini oshirishga xizmat qildi.

Raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlariga elektron tijorat, "Elektron hukumat" tizimi, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarida "aqlli" (smart) texnologiyalarni joriy etish, "Aqlli shahar", "Xavfsiz shahar" loyihalari, shuningdek "Buyumlar interneti" (Internet of Things) texnologiyalaridan keng foydalanish kiradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, odatda quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi: raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, AKT sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, internet tezligi va qamrov darajasi, elektron tijoratning rivojlanishi, "Elektron hukumat" tizimidagi davlat xizmatlari ulushi, AKT sohasidagi mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasi va boshqalar. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston ushbu ko'rsatkichlarning aksariyati bo'yicha 2020-yildan buyon ijobiy natijalarga erishdi. Jumladan, "Axborot-kommunikatsiya" sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 2020-yildan boshlab ikki baravarga oshib, 4,4 trln so'mdan 8,8 trln so'mgacha yetdi. Mazkur faoliyat turi bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ham ikki baravarga o'sib, 6,3 trln so'mdan 12,9 trln so'mgacha ko'paydi.

2020–2024-yillar mobaynida "Axborot-kommunikatsiya" faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi to'rt baravarga oshib, 1,2 trln so'mdan 4,8 trln so'mgacha yetdi. Shu jumladan, xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 0,8 trln so'mdan 2,0 trln so'mgacha, ya'ni 2,5 baravarga ko'paydi. Bu esa AKT sohasining barqaror rivojlanishi uchun muhim zamin yaratdi.

1-jadval. 2020-2024 yillarda O'zbekistonda yalpi qo'shilgan qiymatda "axborot-kommunikatsiya" sohasidagi xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi (trln. so'm)¹.

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
YaIM	242,5	302,5	406,6	510,1	580,2
Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati	220,1	267,7	361,1	464,9	535,8
"Axborot-kommunikatsiya" sohalari	4,4	5,7	7,0	7,4	8,8

Mamlakatda axborot texnologiyalari rivojlanishini baholash bo'yicha xalqaro reytinglarda O'zbekiston ko'rsatkichlari yaxshilashini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu reytinglarda egallab turgan joy bilan birga, ushbu sohaning rivojlanish holatini aks ettiruvchi bir vaqtning o'zida bir necha parametrlarni hisobga olgan indeks ko'rsatiladi.

2-jadval. 2020-2024 yillarda "axborot-kommunikatsiya" iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi (trln.so'm)².

	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Xizmatlar-jami,	97,1	118,8	150,9	193,7	218,9
o'sish sur'atlari (%)	114,7	110,7	108,9	113,2	102,3
"axborotlashtirish va aloqa" sohasi	6,3	8,2	10,3	10,9	12,9
o'sish sur'atlari (%)	114,6	121,3	115,9	108,3	115,3

Shunday indekslardan biri Telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index – TII) bo'lib, u mamlakatning har 100 nafar aholisiga to'g'ri keladigan quyidagi ko'rsatkichlar asosida shakllantiriladi: internetdan foydalanuvchilar soni, statsionar telefon liniyalari, mobil aloqa abonentlari, simsiz keng polosali aloqa hamda statsionar keng polosali tarmoqlar qamrovi. 2016-yildan boshlab O'zbekiston mazkur ko'rsatkich bo'yicha o'z natijasini 0,246 dan 0,472 gacha yaxshiladi.

Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (International Telecommunication Union – ITU) tomonidan 2023-yil oxirida dunyoning 176 mamlakati kesimida AKT rivojlanish indeksi (ICT Development Index – IDI) e'lon qilindi. IDI indeksi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati, ulardan foydalanish darajasi hamda aholining AKTdan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarini aks ettiruvchi 11 ta statistik ko'rsatkich

1 www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari

2 www.stat.uz- O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy axborot sayti ma'lumotlari



asosida shakllantiriladi. Hozirgi vaqtda IDI indeksini hisoblashning yangilangan metodologiyasi ishlab chiqilmoqda. So'nggi reyting natijalariga ko'ra, O'zbekiston 2020-yilga nisbatan 8 pog'onaga yuqorilab, 176 mamlakat orasida 95-o'rinni (indeks ko'rsatkichi — 4,9) egalladi.

Global kiberxavfsizlik indeksi ham Xalqaro Telekomunikatsiya Ittifoqi tomonidan tuziladi hamda hukumatlarning besh asosiy yo'nalish bo'yicha majburiyatlarini baholaydi: huquqiy choralar, texnik choralar, tashkiliy choralar, salohiyatni rivojlantirish va xalqaro hamkorlik. O'zbekiston 2020-yildan buyon ushbu reytingdagi o'z ko'rsatkichini 0,1471 dan 0,666 gacha oshirib, 175 mamlakat orasida 93-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi.

Mobil aloqa indeksi xalqaro mobil aloqa operatorlari assotsiatsiyasi — GSMA (Global System for Mobile Communications Association) tomonidan tuziladi. O'zbekistonning barcha yirik mobil operatorlari mazkur assotsiatsiyaga a'zo hisoblanadi. Indeks mobil internetning rivojlanish va undan foydalanish darajasini baholaydi. U 170 dan ortiq mamlakatlar kesimida mobil internetni joriy etish va kengaytirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar — infratuzilma darajasi, iqtisodiy qulaylik, iste'molchilarning tayyorgarligi, kontent va xizmatlar rivojlanishi kabi mezonlar asosida shakllantiriladi.

3-jadval. 2020-2023 yillarda mobil aloqa Indeksida O'zbekistonning ko'rsatkichlari³

	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Mobil aloqa Indeksi	36,9	40,7	44,5	46,8
Reytingdagi o'rni (170 mamlakat orasida)	134	132	127	124

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiyaga muvofiq, yaqin ikki yil davomida mamlakat hududlari hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan 280 dan ortiq loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, yaqin istiqbolda raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini ikki baravarga oshirish maqsadi belgilangan.

Keyingi ikki yil mobaynida raqamli infratuzilmani rivojlantirish uchun qariyb 2,5 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan.

4-jadval. "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari⁴

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Joriy holati	Yillar kesimidagi maqsadlar
2022	2025	2030	
Respublika bo'ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog'ining uzunligi	ming km	41	70
Respublika hududlarining yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i bilan qamrov darajasi	foiz	67	74
Ijtimoiy obyektlarning yuqori tezlikdagi Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	45	100
Uy xo'jaliklarining keng polosali Internet jahon axborot tarmog'i bilan ta'minlanganlik darajasi	foiz	67	74
Aholi punktlarining keng polosali mobil aloqa tarmog'i bilan qamrov darajasi	foiz	78	100
Elektron hukumatni rivojlantirish xalqaro reytingida "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"ning samaradorlik ko'rsatkichi	ball (0-1 oralig'ida)	0,66	0,70
Davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlariga nisbatan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan elektron davlat xizmatlarining ulushi	foiz	34	60
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali elektron davlat xizmatlariga nisbatan mobil qurilmalar yordamida foydalanish imkoniyatiga ega elektron davlat xizmatlari ulushi	foiz	5	30

³ <https://www.mobileconnectivityindex.com/#year=2016&zonelcode=UZB>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni



Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan tranzaksiyaviy xizmatlar ulushi	foiz	25	45
Korxona resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo'jalik yurituvchi subyektlar ulushi	foiz	20	40
Onlayn bank xizmatlari foydalanuvchilari soni (yuridik va jismoniy shaxslar)	mln nafar	10	15
Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar soni	dona	50	250
Axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash bo'yicha oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga qabul kvotalar soni	ming	7	12

Toshkent shahridagi uchta yirik ma'lumotlar markazini (5 petabaytdan 10 petabaytgacha kengaytirish), shuningdek, Buxoro va Qo'qon shaharlarida (har biri 50 petabaytgacha) yangi ma'lumotlar markazlarini ishga tushirish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada kengaytirish va mobil aloqa infratuzilmasini modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan. Natijada har bir aholi punktidagi uy xo'jaliklari kamida 10 Mbit/s tezlikda internet tarmog'iga ulanish imkoniyatiga ega bo'lishi rejalashtirilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda 211 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Ularning har birida raqamli ta'lim modullari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda hamda inkubatsiya markazlari tashkil etilmoqda. Vertikal ta'limning mutlaqo yangi tizimini shakllantirishga qaratilgan IT-ta'limni rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

2020-yilda "Bir million dasturchi" loyihasi amalga oshirila boshlandi. Mazkur loyiha doirasida dasturlash ko'nikmalarini bepul o'qitish imkoniyati yaratildi va hozirgi kunda 130 mingdan ortiq tinglovchi ta'lim olmoqda. Shuningdek, "Besh million yetakchi" tashabbusi doirasida sun'iy intellekt va prompt muhandisligi ko'nikmalarini keng jamoatchilik orasida ommalashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 24-yanvar). – URL: <https://nrm.uz/contentf?doc=612868>
2. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R. Raqamli iqtisodiyot asoslari: darslik. – T.: TMI, 2020. – 575 b.
3. Negroponte N. Being Digital. – New York: Knopf, 1995. – 256 p.
4. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1994. – 368 p.
5. Сергеев Л.И., Юданова А. Л. Цифровая экономика: учебник для вузов / под ред. Л.И. Сергеева. – Москва: Юрайт, 2020. – 332 с.
6. Башир И. Блокчейн: архитектура, криптовалюты, инструменты разработки, смарт-контракты. – М.: ДМК Пресс, 2019. – 538 с.
7. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi : rasmiy axborot sayti. – URL: <https://www.stat.uz> (murojaat sanasi: 20.02.2026).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
